

ZULFIYA SHE'RIYATIDA JONLANTIRISHNING QO'LLANILISHI

Shahribonu Tursunova

Termiz davlati universiteti,

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sultonqulova Feruza

Annotatsiya: mazkur maqolada XX asr o'zbek she'riyatiga katta hissa qo'shgan shoira Zulfiya she'riyatida badiiy tasvir vositalari, jumladan, jonlantirish vositasining ahamiyati tadqiq etilgan. Shoiraning she'rlari tahlil qilinib, jonlantirish orqali uning badiiy mahorati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, obraz, lirik qahramon, badiiy tasvir vositalari, jonlantirish, o'xshatish, intoq

XX asr o'zbek she'riyatida o'tkir ovoz, muhabbat, vafo va sadoqat, baxt kuychisi sifatida shoira Zulfiyaning nomi alohida yangrab turadi. O'zbek adabiyotida uning o'z tili, o'ziga xos uslubi bor. Teran fikrlovchi shoira Zulfiya hayot haqida o'ziga xos tarzda poetik fikr yuritib, lirik merosini ma'naviy, ma'rifiy va falsafiy mazmun bilan boyitdi. Qaynoq hayotni tasvirlab, undagi kichik voqea va detallardan katta poetik xulosalar chiqardi. "Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiman" – deya faxrlangan shoira she'riyati badiiy go'zalligi bilan alohidalik kasb etadi. Uning ijodiy merosi badiiy tasvir vositalarga boy. Shoira ijodida she'riy asarlar tilining badiiy jihatdan obrazli va bo'yoqdor, ifodali va ta'sirchan bo'lishini ta'minlovchi vositalardan o'xshatish, metafora, sinekdoxa, metonimiya, antiteza, jonlantirishdan keng foydalanilgan. Bunda ular badiiy vosita sifatida kitobxonga badiiy-estetik ta'sir etish vazifasini bajaradi. Ayniqsa, shoira asarlarida jonlantirish vositasidan keng foydalanib, tabiat manzaralarini o'quvchi ko'z oldida haqqoniy tasvirlashga erishgan.

Sindi qish to'qigan muz hisli qafas,

Mana, yana qushlar chug'urlab qoldi.

Ona nigohiday muloyim nafas

Zaminu Osmonni bag'riga oldi.[3:]

Yil fasllari alamashinuvini, qishdan keyin bahor boshlanishini shoira tashxis orqali ko'rsatadi. Dastlabki misralarda "sindi qish to'qigan" – qishga inson faoliyatiga xos "to'qish" yumushini ko'chirib, uni jonlantirmoqda. Shuningdek, qishni "muz hisli qafas" deya yangicha metafora bilan nomlaydi. Ikkinchi misrada "qushlar chug'urlab qoldi" – jonlantirish vositasidagi manzara tabiatga bahor kelganini anglatib, bu poetic tasvir keyingi misradagi o'xshatishga asos bo'lgan: "Ona nigohiday muloyim nafas Zaminu Osmonni bag'riga oldi". Ko'rinadiki, shoira bir nechta vositalar orqali Ona zamanga bahor kelishi, uyg'onish fasli boshlanganini

mahorat bilan tasvirlaydi. Umuman, jonlantirish o'xshatishlar kabi metaforaning maxsus bir turi sifatida og'zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham juda qadimdan boshlab ishlatilib kelinadi. Unda kishilarning harakatlari, his-tuyg'ular so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chiriladi.

Mumtoz adabiyotimizda ilmi bade deb o'rganigan she'riy san'atlar orasida jonlantirish – tashxis deb atalgan. Abdurauf Fitrat bu she'riy san'atni – “jonsiz narsalarni jonli ko'rmak: qushlar, jonivorlarni kimsalar o'rnida tushunib ular bilan gaplashmak — og'ir qayg'ular, kuchli tuyg'ular, yurak to'lquni, qon qaynashi zamonlarida bo'laturg'on bir “ruhiy holat”dir...” [1: 56]deb ta'riflaydi.

Shoira Zulfiya jonlantirish yordamida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning niyoyatda bir-biri bilan ajralmasligini, ular azal-azaldan bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Umuman, uning she'rlarining asosiy manbalaridan biri Ona tabiatdir.[5:] Tabiat uning she'rlarida yetakchi tasvir manba hisoblanadi. Ayniqsa, tabiat hodisalaridan bo'lgan yil fasllari obrazi shoiraga juda ko'p ijodiy ta'sir etadi va mukammal she'riy namunalari yaratadi. “Salom, tansiq bahor” she'rida lirik qahramon bilan “bahor” obrazi “so'zlashadi”.

Gar ibora qadim, qofiya siyqa,

Ajdod o'lmasligin haqiqati bu.

Bahor deding — birdan olam antiqa

Va senda eng yolqin, tirik bir tuyg'u.[3:100-bet].

Shoira she'riyatida bahor asosiy va yetakchi mavzulardan biridir. “Bahor”, “Salom tansiq bahor”, “Bahor keldi seni so'roqlab” she'rlari shunday she'rlaridan hisoblanadi. Bu kabi she'rlarida bahor obrazi lirik qahramonning hasratdoshi, sirdoshiga aylanadi.

“Adabiyotshunoslik lug'ati”da jonlantirishning intoq turi haqida shunday yoziladi: “Intoq” – (“gapirtirish so'zlatish”) mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, badiiy asarda hayvonlar, qushlar va jonli narsalarni xuddi insonlar kabi so'zlatish. Intoq shoirga o'zi ning kechinmalari, borliqqa munosabati, hayot haqidagi falsafiy mushohadalarini bilvosita ifodalash imkonini beradi[2:121].

Uning ijodida jonlantirishning intoq turi ko'p uchraydi. Asosan, uning tong manzaralari tasvirlangan she'rlarida nafaqat tabiat manzaralari, balki ularni so'zlatish orqali lirik qahramon qalb kechinmalarini kuchaytirib, uni yanada aniq ifodalashga erishgan.

Shafaq nuri go'zal, deydilar,

Men shafaqqa keldim yuzma -yuz.

Jilvalarim zarhal, deydilar...

Tong misoli tindirmaydi ko'z. [3:59]

Parchada shoira shafaq manzarasini chizarkan, uning nurini “go'zal”, “jilvalari zarhal” epitetlari bilan tasvirlaydi. Tong shafag'i nutqidan “Jilvalarim zarhal” deydilar so'zlarini aytadi.

“Tongda so‘z qudug‘in tubiga cho‘kib
Axtarardim dur,
Tongday sof tuyg‘ular qalbimda jo‘shib
Qalaming ol der”. [3:95]

U parchada ijodkorning tong bilan hamnafasligi, tong chog‘i ilhom onlarining kelishi “dur axtarishga” o‘xshatiladi. Shu bilan birga shoira “tongday sof tuyg‘ular”ni so‘zlatmoqda: “Qalaming ol, der”. Quyidagi misralarda esa tabiatning yana bir hodisasi shamolga inson harakatini ham ko‘chiradi, ham uni gapirtiradi:

Shamolning bir qo‘li tortar dalaga,
“Men saxovat” der,
Osmon gavharlarin ortmish jalaga
Hovuch -hovuch ter! [3;88)

Zulfiya ijodida bu kabi jonlantirishlarni ko‘plab uchratish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jonlantirishlar har bir holatda ham ijodkor maqsadining amalga oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning she‘rlarida o‘z lirik qahramonining ma‘naviy dunyosini tabiat manzaralari tasviri orqali kengroq yoritib berishda badiiy tsvir vositalarining muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: “Маънавият”, 2006. – Б. 56.
2. Adabiyotshunoslik lug‘ati./ Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Toshkent: Akademnashr, – 2013. – B.121.
3. Zulfiya. Tong bilan shom aro. Saylanma. – Toshkent: SHarq, 2006.
4. G‘afurov I. Zulfiya siymosi // SHarq yulduzi, 2015, №1. – B. 114-120.
5. Umurova G. (2014). SHoira Zulfiyaning badiiy olami. Monografiya. -Toshkent, “Navro‘z”, 156 b.
6. Sul-tonqulova F. Usmon Azim ijodida xalq qo‘shiqlari.// “Modern science and research” Xalqaro ilmiy jurnali, Volume 3, Issue 4, 2024.11.04. <http://modernscience.uz/en/post/detail/3102/>
7. Султонкуловой, Феруза Бобоназаровна. "УСМОН АЗИМ ШЕЪРИЯТИДА КУЗ МЕТАФОРАСИ." МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА 4.3 (2021). 4 jild. №3-son. B. 60-66. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/download/4100/3892/8233>
8. Sul-tonqulova F. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ruhiy-psixologik holat ifodasida detalning o‘rni// “Экономика и социум”. Россия.№6(121). – 2024. <https://cyberleninka.ru/article/n/>
9. Moxinur N., Feruza S. XX ASR O‘ZBEK TANQIDCHILIGI TARAQQIYOTIDA OZOD SHARAFIDDINOVNING O‘RNI //Ta‘lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2023. – T. 11. – №. 7. – C. 107-110.
10. Sul-tonqulova F. An‘anaviy tosh obrazining talqinlari xususida./ **Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari.**/ ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES. **3/(S)(4-jild). 2024.** <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/1856>